

СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 2 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 2

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 2



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№2 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2025-2>

Бош муҳаррир:
Тўхтасинов Илҳом
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:
Тухтасинов Илхом
д.п.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:
Tuhtasinov Ilhom
DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўғли
ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил
ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммаед
к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт
Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддиқова Ирода
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар
ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат
масбул котиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр
академик. (Узбекистан)

Якуб Умар оглы
д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Миннуллин Ким
д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Керимов Исмаил
д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Куренов Рахыммаед
к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Жеймс Форт
Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мирзаев Ибодулло
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Балтабоев Ҳамидулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дустмухаммедов Хуршид
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Лиходзиевский А.С.
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Сиддиқова Ирода
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Шиукашвили Тамар
д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат
отв. секретарь, PhD, доцент
(Узбекистан)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov
academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort
University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar
Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat
PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Murodova Mo'tabar Ibodullayevna TILAKLAR VA OLQISHLARNI NUTQIY AKTLAR SIFATIDA LINGVISTIK NUQTAI NAZARDAN TAHLILI...	5
2. Yusupova Soxiba Islombek qizi O'ZBEK BOLALAR O'YIN QO'SHIQLARIDA ATOQLI OTLARNING QO'LLANILISHI.....	9
3. Lolayeva Gulniso Geldiyorovna GAZETA MATNINING UMUMIY VAZIFALARI.....	13
4. Sharopova Ra'no, Karimova Latofat HOZIRGI O'ZBEK TILIDA "TARBIYA" LEKSIK-SEMANTIK MAYDONI TARKIBI VA TASNIFIQA OID QARASHLAR.....	18
5. Намазова Манзура Ураковна ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ЖИЗНИ И ЧАСТИ ИММИГРАНТОВ В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ.....	24
6. Sadriddinzoda Safiya Shaxobiddinovna AMPHIBOLOGY IN ENGLISH RELIGIOUS LEXICOLOGY.....	32
7. Esirgapov Mukhiddin Nizomiddinovich THE INFLUENCE OF THE INTERNET AND DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE ENGLISH LANGUAGE.....	37
8. Karimova Dilorom Shavkatovna VERBAL AND NON-VERBAL INTERPRETATION OF THE CONCEPTS OF "DEATH" AND "LIFE".....	43
9. Narzullaeva Dilnoza Sanatovna CONCEPTUAL METAPHOR THEORY: EXPLORING THE ROLE OF METAPHOR IN CONCEPTUALIZING ABSTRACT CONCEPTS.....	48
10. Шахзод Турниязов ЎЗБЕК ТИЛИГА ҚИЛИНАЁТГАН ЗАМОНАВИЙ БАДИИЙ ТАРЖИМАЛАРДА МУАЛЛИФ УСЛУБИНИ САҚЛАШ МАСАЛАСИГА ДОИР (О. ГЕНРИ ҲИКОЯЛАРИ МИСОЛИДА).....	52
11. Matkarimova Gulira'no Abdullayevna XALQ OG'ZAKI IJODI VA MIFOLOGIK MANBALARDA UCHRAYDIGAN FITONIMLARNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI.....	63
12. Алена Ялмагвевна Иванова ВЛИЯНИЕ КОНФУЦИАНСТВА НА ПРОЯВЛЕНИЕ ЭМОЦИЙ.....	68
13. Yunusova Gulshoda Dilshadovna EKVIVALENTLIK VA FE'L VALENSIYASI.....	80
14. Eshboyev Qahramon Bakir o'g'li O'ZBEK TILI SINONIMIK LUG'ATLARIDA DARAJALANISH METODOLOGIYASI.....	85
15. To'liboyeva Gulnura Baxadir qizi PEYZAJ BADIY VOSITA SIFATIDA (O'ZBEK VA QORAQALPOQ SHE'RIYATI MISOLIDA).....	91
16. Холбобоева Нилуфар Бахтиёр кизи НАВОИЙГА ТАХМИС.....	96
17. Сайымбетов Шарафатдин Уракбаевич И. ЮСУПОВНИНГ «ДАЛА АРМОНЛАРИ» ПОЭМАСИДА ИНДИВИДУАЛ МЕТАФОРЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ ВА БАДИИЙ ВАЗИФАЛАРИ.....	102
18. Комила Мамадиёрова ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ ИНТЕГРАЦИОН ТАБИАТИ ХУСУСИДА.....	106
19. Xolova Muyassar Abdulhakimovna O'ZBEK SHEVALARIDA FONETIK O'ZGARISHLAR (Surxondaryo viloyati misolida).....	111
20. Malika Soliyeva INGLIZ TILIDAGI INTONATSIYANING AYRIM FONOSTILISTIK XUSUSIYATLARI.....	118
21. Комила Мамадиёрова ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ УСЛУБИЙ ФУНКЦИЯЛАРИ ХУСУСИДА.....	122

22. Xurinsa Xudoyberdiyeva TROPLARNING USLUBIY XUSUSIYATI (Xosiyat Rustamova lirikasi misolida).....	128
23. Israilova Sayera Tashpulat qizi INTERFAOL USULLAR ORQALI INGLIZ TILIDA O‘QISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH (Tarix yo‘nalishi talabalari uchun).....	133
24. Israilova Sayera Tashpulat qizi INGLIZ XALQ ERTAKLARI ORQALI BOSHLANG‘ICH SINFLARIDA O‘QUVCHILARIDA O‘QISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH.....	137
25. Комила Мамадиёрова ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ ИНТЕГРАЦИОН ТАБИАТИ ХУСУСИДА.....	143
26. Робиға Мамбетова ҚОЗОҒИСТОН ЎЗБЕКЛАРИ ФОЛЬКЛОР АСАРЛАРИНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	149
27. Ҳамидулла Годжиев ТУРКИСТОН ЖАДИДЧИЛИК ҲАРАКАТИНИНГ УМУММАЪРИФИЙ – УМУМАДАБИЙ ТАМОЙИЛЛАРИ.....	154
28. Ergashova Rano Turaevna LINGUISTIC FEATURES OF AVIATION TERMINOLOGY IN ENGLISH, RUSSIAN, AND UZBEK LANGUAGES: SPECIFICITIES AND COMMONALITIES.....	160
29. Bobir Maxammadov MIKROSOFT VINDOVS OPERATSION TIZIMI TERMINLARINING LEKSIKOGRAFIK TAVSIFI MASALALARI: MUAMMOLAR VA VAZIFALAR.....	170
30. Xalimova Firuza Rustamovna POETIK MATNDA BADIY KONSEPTLAR VA METAFORALARNING KOGNITIV-ESTETIK TALQINI.....	176
31. Комила Мамадиёрова ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ ИНТЕГРАЦИОН ТАБИАТИ ХУСУСИДА.....	182
32. Матлуба Шукурова ЭНАХОН СИДДИҚОВА ШЕЪРИЯТИДА “АЁЛ” КОНЦЕПТИНИНГ АКТУАЛЛАШУВИ.....	187
33. Tashkulova Zarnigor “SHARQ” KONSEPTI SEMANTIK MAYDONIDA PEYZAJNING IFODALANISHI (S. MOEM HIKOYALARI MISOLIDA).....	195




ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Sharopova Ra'no
f.f.f.d. (PhD), dotsent
Karimova Latofat
Magistr

HOZIRGI O'ZBEK TILIDA "TARBIYA" LEKSIK-SEMANTIK MAYDONI TARKIBI VA TASNIFIQA OID QARASHLAR

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.17087325>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek tilidagi "tarbiya" leksik-semantik maydoni tahlil qilingan bo'lib, "tarbiya" mohiyati nafaqat lisoniy birlik sifatida, balki jamiyatning ma'naviy, axloqiy va pedagogik qadriyatlarini aks ettiruvchi vosita sifatida ham ko'rib chiqilgan. Shuningdek, maqolada "tarbiya" so'zining turli lug'atlardagi semantik tavsifi, pedagogik adabiyotlar, shuningdek Abdulla Avloniy kabi ma'rifatparvarlar asarlari orqali ochib berilgan.

"Tarbiya" atamasi orqali axloqiy fazilatlar – vijdon, halollik, sabr, sadoqat, olijanoblik kabi ijobiy leksemalar markaziy semantik yadroni tashkil etadi, ularning qarshisida esa salbiy sifatlarni bildiruvchi so'zlar joy oladi. "Tarbiya" konseptining semantik tahlili, mavhumlik darajasi, aksiologik xususiyatlari va milliy qadriyatlar bilan bog'liqligini ochib berish bilan birga, o'zbek tilida shakllanayotgan tarbiya semantik maydonining tuzilmasi – yadro, markaz, qurshov va chekka qismlari belgilandi.

Kalit so'zlar: tarbiya, mikromaydon, axloqiy tarbiya, semantik maydon, yadro, markaz, qurshov, chekka, lisoniy birliklar.

ANNOTATION

This article analyzes the lexical-semantic field of the Uzbek word "tarbiya" (upbringing/education), examining its essence not only as a linguistic unit but also as a means reflecting the spiritual, moral, and pedagogical values of society. The article explores the semantic description of the word "tarbiya" in various dictionaries, pedagogical literature, and the works of enlightened thinkers such as Abdulla Avloniy.

Through the concept of "tarbiya" positive lexemes representing moral virtues—such as conscience, honesty, patience, loyalty, and nobility—form the central semantic core, while words denoting negative traits are positioned in opposition. The semantic analysis of the "tarbiya" concept reveals its level of abstraction, axiological features, and its connection with national values, while also identifying the structure of the developing semantic field of "tarbiya" in the Uzbek language, including its core, center, periphery, and marginal parts.

Keywords: tarbiya, microfield, moral upbringing, semantic field, core, center, periphery, margin, linguistic units.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется лексико-семантическое поле “воспитание” в узбекском языке, рассматривается сущность “воспитание” не только как языковой единицы, но и как средства отражения духовных, нравственных и педагогических ценностей общества. В статье также исследуется семантическое описание слова “воспитание” в различных словарях, педагогической литературе, трудах просветителей, таких как Абдулла Авлони.

В термине “воспитание” центральное семантическое ядро образуют положительные лексемы, обозначающие моральные качества: совесть, честность, терпение, верность, благородство, а напротив них располагаются слова, обозначающие отрицательные качества. Семантический анализ концепта “воспитание”, наряду с выявлением его уровня абстракции, аксиологических характеристик, связи с национальными ценностями, определил структуру формирующегося в узбекском языке семантического поля образования – ядро, центр, периферия.

Ключевые слова: образование, микрополе, нравственное воспитание, семантическое поле, ядро, центр, периферия, языковые единицы.

“Tarbiya” leksik-semantik maydoni atrofida birlashadigan soʻzlarni toʻplash va har tomonlama chuqur oʻrganish nafaqat lisoniy tizimni yaxshiroq tushunish, balki jamiyatning maʼnaviy-maʼrifiy qarashlari, axloqiy qadriyatlar va taʼlim-tarbiya tizimining lingvistik inʼikosini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega boʻlib, bu orqali til, tafakkur va madaniyat oʻrtasidagi bogʻliqlik yoritiladi.

“Tarbiya” tushunchasi insonning maʼnaviy, intellektual va ijtimoiy jihatdan shakllanish jarayonini ifodalaydi. Bu soʻzning turli kontekstlarda qoʻllanishi uning mazmunan boy va serqirra ekanligidan dalolat beradi. Adabiyotlarda dastavval tarbiya quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Maʼnaviy tarbiya – ruhiy va axloqiy shakllanish.

Tarbiya bu shunchaki oʻrgatish emas, balki insonning ichki dunyosini boyitish, unda ezgulik va yaxshilik urugʻini ekishdir. Maʼnaviy tarbiya faqat soʻz bilan emas, balki oʻrnak boʻlish orqali shakllanadi. Misol: Ota-onaning mehribonligi va bagʻrikengligi bola ruhiyatida chuqur iz qoldiradi.

2. Shaxsiy tarbiya – insonning oʻzini oʻzi tarbiyalashi. Tarbiya faqat tashqaridan keladigan taʼsir bilan cheklanmasligi kerak. Har bir inson oʻzini tarbiyalashi, ichki intizom va oʻz hayotini boshqarishni oʻrganishi zarur. Misol: “Oʻzini rivojlantirishga intilish – eng yuqori tarbiya shaklidir”.

3. Ijtimoiy tarbiya – jamiyatning tarbiyaga taʼsiri. Tarbiya jarayonida insonning atrofidagi muhit katta rol oʻynaydi. Albatta, jamiyat va madaniy anʼanalar insonning xarakteriga, dunyoqarashiga va qadriyatlariga bevosita taʼsir qiladi. Misol: “Bolalar jamiyatdagi yomon odatlarni koʻrib oʻrganishi mumkin, shuning uchun sogʻlom muhit yaratish muhim”.

Tarbiya – bu uzluksiz jarayon. Har bir inson umr boʻyi tarbiyalanadi va oʻz navbatida boshqalarga tarbiya beradi. Tarbiya bu nafaqat bir avloddan boshqasiga oʻtadigan bilim, balki insonni yaxshilikka, halollikka va mehrga boshlovchi hayotiy kuchdir. Tarbiyada muhimi – nafaqat soʻz, balki hayot tarzidir.

Dunyodagi barcha tillarda mavhum maʼnoga ega boʻlgan juda koʻplab soʻzlar mavjud. Ular real borliqdagi narsa-hodisalarga emas, balki insonning his-tuygʻulariga, ruhiy olamiga tegishli ekanliklari bilan xarakterlanadi. Bu kabi soʻzlarning maʼnosi insonlar oʻrtasidagi muloqot jarayonida oydinlashadi. Mavhum maʼnoli **tarbiya** leksemasi ham semantik koʻlami kengligi bilan ajralib turadi.

Tarbiya tushunchasi murakkab taraqqiyot yoʻlini bosib oʻtgan boʻlib, uning mazmun-mundariyasi tobora kengayib bormoqda. Shu bilan bir qatorda, tarbiyaga turlicha qarashlar mavjudki, shunga koʻra u har xil tushunilgan va tushuntirilgan, lugʻat va tarbiyaga oid adabiyotlarda turlicha izohlangan. Xususan, “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da **tarbiya** leksemasiga quyidagicha taʼrif berilgan:

№	Taʼrif	Misollar
1	Taʼlim, axloq-odob va sh.k. ni oʻrgatib, singdirib, insonni	Internat tarbiyasida oʻsgan bola. Abdurahmon.. otasi oʻlib, onasi va ota tomonlari tarbiyasida qoldi. A.Qodiriy,

	voyaga yetkazish, ulg‘aytirish, o‘stirish	Mehrobdan chayon. Qiz o‘n olti yoshgacha bu oilada, muzika muallimi bo‘lgan kambag‘al amakining tarbiyasida o‘sdi. Oybek, Tanlangan asarlar.
2	Insonda ish-hunar, odob-axloq va sh.k.ni shakllantirish, rivojlantirishga, uning jamiyatda yashashi uchun kerak bo‘lgan xislatlarga ega bo‘lishini ta‘minlashga qaratilgan ish-amallar majmuyi va shu yo‘l bilan singdirilgan odob-axloq, xislat, fazilat kabilarning o‘zi.	Siyosiy tarbiya. G‘oyaviy tarbiya. Maktab tarbiyasi. Tarbiyasi buzuq odam. Tarbiyasi yaxshi bola. Yosh avlod tarbiyasida yuqori samaraga erishish uchun bir qator shart-sharoitlar barqaror bo‘lishi lozim. Gazetadan. Bolalar kitobi tarbiya uchun yoziladi, tarbiya esa buyuk ish. « Saodat ».
3	Ma‘lum tartib, usul asosida qarab, ishlov berib o‘stirmoq; parvarishlamoq (o‘simlik va hayvonlar haqida).	G‘o‘za tarbiyasi og‘ir ish. (O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik, 4-jild, B. 678)

Ko‘rinadiki, izohli lug‘at **tarbiya** leksemasini uch ma‘noli so‘z sifatida belgilagan. Shaxsga qaratilgan birinchi va ikkinchi ma‘nolar izohlarida katta farqni ko‘rmaymiz. Birinchi izoh “ta‘lim”, “o‘rgatish”, “voyaga yetkazish”, “ulg‘aytirish”, “o‘stirish” semalaridan, ikkinchisi esa “ish-hunar”, “shakllantirish”, “rivojlantirish”, “jamiyatda yashash”, “xislat”, “fazilat”, “majmua” semalaridan tashkil topgan. Har ikki semema uchun “inson”, “odob-axloq”, “singdirish” semalari umumiy. Bundan tashqari, tarbiya leksemasining ikkinchi ma‘nosi izohidagi qisqartma (sh.k.) va “ish-amallar majmuyi” kabi umumiy ma‘noli so‘zlarning qo‘llanishi mazkur ma‘noni mavhumlashtirib qo‘ygan.

“O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da “tarbiya” so‘ziga ancha aniq izoh berilgan deb hisoblash mumkin: Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma‘naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta‘minlash yo‘lida ko‘riladigan chora-tadbirlar yig‘indisi [4, 114].

Pedagogik adabiyotlarda ham “tarbiya” atamasi keng va tor ma‘nolarda ishlatiladi. Keng ma‘noda tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma‘rifiy hayotida faol ishtirokini ta‘minlashga qaratilgan barcha ta‘sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yigindisini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g‘oyalari, adabiyot, san‘at, kino, radio, televideniye va boshqalarni ham o‘z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma‘nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta‘lim va ma‘lumot olish ham kiradi. Tor ma‘noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma‘naviy-axloqiy qiyofasi, estetik didi o‘stirilishiga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi. Demak, tarbiyaga umumiy planda qaralar ekan, unga quyidagicha ta‘rif berish o‘rinli: tarbiya – shaxsni ijtimoiy hayotga, ishlab chiqarish va madaniy faoliyatga tayyorlash maqsadida uning ma‘naviy hamda jismoniy taraqqiyotiga muntazam va maqsadga muvofiq ravishda ta‘sir ko‘rsatish.

O‘zbek ma‘rifatparvari Abdulla Avloniy ham “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida tarbiyaga quyidagicha tavsif beradi: “Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmaq, tanini pok tutmaq, yosh vaqtdan maslakini tuzatmaq, yaxshi xulqlarni o‘rgatmaq, yomon xulqlardan saqlab o‘sdurmakdur” [1, 3]. U tarbiyaga pedagogika faniga ma‘nodosh sifatida qaraydi va axloq ilmining asosi deb tavsif beradi.

Tarbiya tushunchasi keng bo‘lganligidan uning lisoniy ifodasi ham murakkab semantik xususiyatlarni o‘zida namoyon etadi. Shunga ko‘ra, ma‘no tuzilishida **tarbiya** semasi mavjud birliklarni yanada aniqlashtirish, mazkur tizimga oid birliklarni mukammal darajada to‘plash uchun

tarbiya mazmuniy maydoniga mansub birliklar tasnifini amalga oshirish, ularning mavzu guruhlarini aniqlash lozim.

Tarbiya mazmuniy maydoni atrofida birlashadigan soʻzlarni quyidagi mikromaydonlarga ajratish mumkin:

- a) fuqarolik tarbiyasi mikromaydoni;
- b) mafkuraviy tarbiya mikromaydoni;
- c) aqliy tarbiya mikromaydoni;
- d) mehnat tarbiyasi mikromaydoni;
- e) jismoniy tarbiya mikromaydoni;
- f) estetik tarbiya mikromaydoni;
- g) ekologik tarbiya mikromaydoni;
- h) axloqiy tarbiya mikromaydoni.

Har bir mikromaydonga xos leksemalar alohida xususiyatlarga ega boʻlib, mazkur guruhlar bir qancha soʻz va soʻz birikmalarni oʻz ichiga oladi:

- a) fuqarolik tarbiyasi: vatanparvarlik, fidoiylik, qadriyat, uddaburonlik, masʼuliyat;
- b) mafkuraviy tarbiya: yaratuvchanlik, tafakkur qilish, oʻz-oʻzini anglash mehr-oqibat, milliy anʼanalar va qadriyatlarga sodiqlik;
- c) aqliy tarbiya: donolik, oʻz-oʻzini nazorat qilish, xotirani mustahkamlash, oʻtkir zehni boʻlish;
- d) mehnat tarbiyasi: mehnatsevarlik, tartib, saranjomlik, ota-onaga yordam berish, ozodalikka rioya qilish;
- e) jismoniy tarbiya: badantarbiya, yugurish, mashq, sport bilan shugʻullanish, armiya safida xizmat qilish;
- f) nafosat tarbiyasi (estetik tarbiya): goʻzallik, ijodkorlik, iqtidor, ishtiyoq, badiiy asarlarni tahlil qilish, kiyinish madaniyati;
- g) ekologik tarbiya: tejamkorlik, ona tabiatni asrash, hayvonlarga gʻamxoʻrlik, suvni tejash, atrof-muhitni ifloslantirmaslik;
- h) axloqiy tarbiya: hayo, farosat, vijdonlilik, rahmdillik, doʻstlik, halollik, sabr-matonat, toʻgʻrisoʻzlik, sadoqat, minnatdorchilik, oliyjanoblik, saxiylik, nomusli boʻlish.

Abstrakt soʻzlarning aksiologik talqiniga “Yuksak maʼnaviyatli shaxsni shakllantirishning tarbiya texnologiyasi” nomli monografiyada pedagogik nuqtayi nazar bilan yondashilgan. Unda shaxsning maʼnaviy kamolotini shakllantirishni belgilab beruvchi fazilatlar deb vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik kabi qadriyatlar belgilangan. Jumladan, “Vatanparvarlik fidoiylik, hamjihatlik, tinchliksevarlik, daxldorlik, mardlikni; insonparvarlik ezgulik, andishalilik, rahmdillik, saxovatlilik, kamtarlikni; axloqiylik odoblilik, olijanoblik, halollik, bagʻrikenglik, vijdonlilik, oʻz-oʻzini anglashni; mehnatsevarlik tirishqoqlik, tashabbuskorlik, intizomlilik, va ijtimoiy faollikni oʻzida mujassamlashtiradi” [2, 43].

Tarbiya dastavval xulq-atvor, axloqiy sifatlarni rivojlantirishga nisbatan qoʻllangan.

Koʻrinadiki, tarbiya deganda faqatgina axloqiy tarbiya nazarda tutilmasdan, u mazkur maydonning bir uzvi maqomida ekan. Biroq shuni aytish kerakki, tarbiyaning bu komponenti mazmuniy maydon markazida joylashadi. Masalan, A.Avloniy sanab oʻtgan yaxshi va yomon xulqlar maydon markazidan oʻrin oladi: diyonat, nazorat, gʻayrat, riozat, qanoat, shijoat, ilm, sabr, hilm, intizom, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, nazariy ibrat, iffat, hayo, idrok, iqtisod, viqor, itoat, haqshunoslik, xayrixohlik, munislik, sadoqat, muhabbat va avf.

Yoki yomon xulqlar: gʻazab, shahvat, jaholat, safohat, hamoqat, adovat, gʻiybat, haqorat, hasad, nifoq, taʼma va h.k.

Maʼlumki, inson barkamolligi uning tashqi koʻrinishiga qarab emas, balki uning maʼnaviy dunyosiga qarab belgilanadi. Jamiyat ravnaqi esa ana shu jamiyatda yashaydigan insonlar maʼnaviy kamolotiga bogʻliqdir. Zamon rivojlanib borar ekan, kundan kunga ehtiyojlar paydo boʻlib boradi, shuning uchun ham jamiyatimizda tarbiyali insonlarga ehtiyoj katta. Tarbiya, bu insonlarni kamolotga yetaklaydi, kishilarning yurish-turishi, odob-axloqi uning tarbiyasi orqali namoyon boʻladi.

Ko‘rinib turibdiki, tarbiya keng qamrovli tushuncha bo‘lib, bu tushuncha ensiklopedik, izohli, falsafiy, etimologik, pedagogik lug‘atlarda turlicha izohlangan. Ushbu manbalardan foydalangan holda tadqiqotimiz obyektimiz sanalgan “tarbiya” semantikasini torroq ko‘lamda – “axloqiy tarbiya” tushunchasi doirasida ko‘rib chiqamiz.

Tilshunosligimizda mustaqil tizim sifatida shakllanayotgan “tarbiya” ma’naviy maydoni, uni ifodalovchi leksik birliklar tizimi, mazkur tizimning ichki tuzilishi o‘ziga xos tarzda shakllanib bormoqda. Tarbiya ma’naviy maydoni tarkibi ham boshqa semantik guruhlar singari o‘ziga xos shakl, mazmun va semantik strukturasi ega. Xususan, mazkur ma’naviy maydoni alohida leksik tizim sifatida yadro, markaz, qurshov, chekka qismlardan iborat.

Tahlil etilayotgan “tarbiya” ma’naviy maydoni yadrosi atrofida vijdonlilik, rahmdillik, do‘stlik, halollik, sabr-matonat, to‘g‘risozlik, sadoqat, minnatdorchilik, oliyanoblik, nomus kabi leksemalar bilan “axloqiy tarbiya” makro guruhini hosil qiladi. Uning markaziy qatorini mehr-oqibat, milliy an‘analar va qadriyatlarga sodiqlik, yaratuvchanlik, tafakkur qilish, o‘zini o‘zi anglash, fidoiylilik, qat’iyat, vatanparvarlik leksemalari egallaydi. Mazkur ma’no maydoni markaziy birliklarining shakllanishida ularga ma’naviy bog‘liq bo‘lgan o‘z qurshoviga ega bo‘ladi. Bunday markaziy qatorni ifodalaydigan birliklar ma’nosiga ko‘ra:

a) ijobiy xususiyatni bildiruvchi so‘zlar: fidoiylilik, qat’iyat, mehr-oqibat, nomus, vatanparvarlik, to‘g‘risozlik, rahmdillik, do‘stlik, halollik, sabr-toqat, oliyanoblik;

b) salbiy xususiyatni bildiruvchi so‘zlar: qat’iyatsizlik, yolg‘onchilik, sabrsizlik, berahmlilik, qo‘pollik v.h.lardan tashkil topadi.

“Tarbiya” umumiy semali atov birliklari ana shunday semalar asosida quyidagicha markaz qatorini hosil qiladi. Markaziy birlik hisoblangan “axloqiy tarbiya” semantik jihatdan yuqori darajada odobli, xulq-atvori, odamgarchiligi juda baland, ulug‘, asl bo‘lgan oliyanoblik [3, 112]; chin qalbdan berilganlik, sodiqlik, vafodorlik, sadoqat [3, 418]; biror holat yoki hodisani bardosh bilan kutish, qanoat qilish – sabr [3, 411]; to‘g‘risozlik, xushmuomalalik, vijdonlilik semalarini o‘z atrofida birlashtiradi. Bu so‘zlarning qurshovida vijdonlilikdan rahmdillik semasi, xushmuomalalikdan minnatdorchilik, shukronalik semasi, sadoqatdan do‘stlik semasi, oliyanoblikdan mehribonlik semasi, sabr-matonatdan fidoiylilik, to‘g‘risozlikdan qat’iyat semasi qurshov atrofida kengayadi.

Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida shunday yozadi: “Axloq ulamosi insonlarning xulqlarini ikkiga bo‘lmishlar. Agar nafs tarbiya topib yaxshi ishlarni qilurga odat qilsa, yaxshilikka tavsif bo‘lib, yaxshi xulq agar tarbiyatsiz ustida yomon ishlaydigan bo‘lib ketsa, yomonliqa tavsif bo‘lib, yomon xulq deb atalur... Yaxshi xulq bir qismni o‘z nafsimizga, bir qismni bir-birimizga qarshi ishlatmak uchun kerakli bo‘lgan yaxshi xulqlar fatonat, diyonat, islomiyat, nazorat, hayrat, riyozat, qanoat, shijoat, ilm, sabr, hilm, intizom, miqyosi nafs, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok, hifzi lison, iqtisod, itoatshunoslik, xayrixohlik, munislik, sadoqat, muhabbat va afvdir... Insonlarni saodat abadiyadan mahrum qiladigan janobi haq qoshida va xalq nazarida mazmum, hordiq hayoti jovidonimiz uchun mavsumum bo‘lgan axloqi zamimalar: g‘azab, shahvat, jaholat, safoat, ammo qat adolat asosida raqobat, anoniyat, adovat, namimi haqorat, jibonad, hasad, nifoq, tama, zumdir...” [1].

Abdulla Avloniy bobomiz tarbiya mazmunini ochib berishga harakat qilgan ushbu jumalardagi ko‘pgina leksemalar eskirgan yoki kitobiy uslubga xoslanib qolgan. Qanoat, shijoat, ilm, sabr, intizom, vijdon, Vatanni suymak, iffat, hayo; shuningdek, g‘azab, jaholat, adovat, g‘iybat, haqorat, hasad, nifoq, tama, zulm kabi so‘zlar hozirgi kunimizda ushbu semantik kategoriyada faol qo‘llanib kelmoqda.

O‘zbek xalq maqollarida axloqiy tarbiya juda katta ahamiyatga ega. Ularning ko‘pchiligi, insonni yaxshi axloq va ma’naviyatga yo‘naltirishga qaratilgan. Masalan, “Yaxshi kishi yo‘lidan ketsa, to‘g‘ri yo‘lga tushar” maqoli, tarbiya va axloqning insonga qanday ta’sir qilishini tushuntiradi. Tarbiya har bir insonning ichki dunyosini shakllantirishda, uning fikrlash tarzini va atrofda qilargalarga bo‘lgan munosabatini belgilashda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, “tarbiya” tushunchasi insonning ma’naviy, intellektual va ijtimoiy shakllanishini ifodalovchi murakkab semantik maydonni hosil qiladi. Tarbiya ma’naviy, shaxsiy, ijtimoiy kabi turlarga bo‘linib, bu yo‘nalishlarning har biri alohida mikromaydonlar orqali

belgilangan. Leksik-semantik jihatdan “tarbiya” atamasi ijobiy va salbiy fazilatlar bilan boyib, turli affikslar, metaforalar hamda kontekstlarda o‘z ifodasini topgan. Tarbiya tushunchasi lug‘aviy, pedagogik, falsafiy manbalarda turlicha talqin etilgan bo‘lsa-da, u doimiy rivojlanish va inson kamolotining asosi sifatida namoyon bo‘ladi. Markaziy semantik yadroda axloqiy tarbiya turadi, u vijdon, halollik, sabr kabi qadriyatlarni qamrab oladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. www.ziyouz.com kutubxonasi, B.3.
2. Egamberdiyeva N., Xodjayev B., Begimqulov U., Yo‘ldashev I. va b. Yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirishning tarbiya texnologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – B. 43.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildlik, 3-jild. B.112.
4. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, o‘n ikki tomlik. 9-jild. –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. – T.: 2006. B.114.

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 2 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 2

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000